

TALABALARDA ANSAMBL IJROCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Shahrisabz davlat pedagogika institutio 'qituvchisi

Fazliddinov Zokir

Tel:+998977627374

Annotatsiya: Ma'lumki, millatimizning boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib etishishlarini san'atimizning fidoiylari, jonkuyar tashabbuskorlari va mohir ijro-chilar amalga oshirib kelganlar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yosh avlodni komil inson darajasiga chiqishida juda muhim ahamiyat kasb etgan turli san'at sohalarining ijodiy salohiyatga ega bo'lgan kadrlarini yetishtirish ham bugungi kunimiz uchun juda zarurdir. Ushbu maqolada Talabalarda ansambl ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish xususida so'z boradi

Kalit so'zlar: maqomlar , O'zbek xalqining, boy musiqa merosini o'rganish, Yunus Rajabiy, Shashmaqom, Ansambllar, umumiyl qoidalar, sozandaning ijrochilik holati, jamoaviy ijro, dunyoqarash.

Ma'lumki, maqomlarga, xalq kuylariga talab xalqimiz orasida tobora ortib bormoqda. Ana shunday talab va ehtiyojni qondirish maqsadida yetuk ijrochi mutaxassislarni tarbiyalash mas'uliyatli vazifalardan biri xisoblanadi.

O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilishishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o'tishida tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tash bilan birgalikda, o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar.

O'zbek mumtoz musiqa yo'llari o'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammaligi, ko'plab badiiy vositalarga boyligi bilan o'ziga xos musiqaviy ijrochilik san'ati turiga aylangan. Katta badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan mumtoz musiqa yo'llari milliy rux, milliy qiyofani shakllantirish, milliy

qadriyatlarni saklash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yurtimizda maqomchilik san’atining taraqqiy etishida akademik Yunus Rajabiyning xissasi katta. Ularning xarakatlari bilan 1959 yilda birinchi marotaba o‘zbek tilida "O‘zbek xalq musiqasi" nomli olti jildlik Shashmaqom antologiyasi tuzilgan. XX asrda maqomchilik san’ati rivojlanib, yetuk sozanda yu xonandalar va bastakorlar ijodi va repertuarlaridan o‘rin oldi. Ular zamonaviy nota yozuvlari orqali to‘plamlar sifatida nashr etildi, ularni nazariy va amaliy o‘zlashtirishishlari amalga oshdi.

Xukumatimiz raxbarlarining say-xarakatlari bilan maqomchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan kator tadbirlarning ishlab chiqilishi va amaliyatga tadbiq etilishi sohani jahon miqyosiga olib chiqish imkonini yaratmokda, desak sira mubolag'a bo'lmaydi. Samarqandda o‘tkazib kelinayotgan an'anaviy Xalqaro makom anjumanda ko‘plab xorijiy davlatlardan mashxur xonanda, sozanda, maqom bilimdonlari ishtirok etishi va ulardan ma'lum bir saboq olishimiz biz san'atkorlar va konservatoriya pedagoglari uchun katta mahorat maktabi, desak ayni muddao bo‘ladi. Tashkilotchilar orasida turkiy maqom san’atidan boxabar ko‘plab olimlar faoliyat olib boradi. Tadbir doirasida ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari o‘tkazilishi bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirishga olib keladi. Nufuzli tadbirda milliy mumtoz san’atimiz jozibasi namoyish etilib, Mahalliy va xorijlik musiqashunoslar, olimlar, xonanda va sozandalar o‘zaro fikr almashiladi. Bu kabi tanlovlardan dunyo xalqlarining musiqiy tafakkuri, dunyoqarashi yanada boyishiga, ma‘naviy merosga alohida mexr ko‘yishiga xizmat qiladi.

Bugun san’at dargohiga ilk bor qadam qo‘ygan yosh yigit va qizlarimiz musiqa san’ati sirlarini astoydil o‘rganyaptilar. Ma‘lumki, Respublikamizning barcha musiqa dargohlarida turli ansambllar qatori o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli darslari ham olib boriladi. Ansambllarda ijro etish yosh sozanda talabalar uchun katta ijrochilik mifikini o‘tashi shak-shubhasiz.

Ansabl so‘zi fransuzcha ensemble -so‘zidan olingan bo‘lib, bиргаликда ма‘носини bildiradi. Jamoaviy ijrochilik san’atida ansabl sozandalari umumiyligida qoida va tartibga

rioya qilishlari zarur. Bu har qanday ansambl sozandalari ishining unumli bo‘lishi, ijodiy muhitning saqlanishi, ijro sifatining yuqoriligi va jamoa a‘zolarining bir-birlarini to‘g‘ri tushunishlari uchun zarur omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘quv jarayonida talabalar, ayniqsa, ushbu qoidalarga rioya qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki talabalarning yoshi, dunyoqarashlari va qiziqishlari farq qilganligi, dars jarayonida bir oz diqqatliroq bo‘lishni talab etadi. O‘rindiqda noto‘g‘ri o‘tirish, e‘tiborsizlik, o‘z ijrosini yoki tovushini nazorat qilmaslik kabi holatlar butun jamoa ijrosiga salbiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Shunday ekan, ansambl sinfi fanidan dars båradigan professor o‘qituvchi avvalo talabalarni ansambl ijrochiligining umumiyligini qoidalari bilan tanishtirib, so‘ngra ularga qat‘iy rioya qilinishiga erisha bilishi lozim.

Ansambl ijrochiligining umumiyligini qoidalari avvalo ansamblida to‘g‘ri o‘tirish, cholg‘u sozini to‘g‘ri tutish, tovush chiqarish madaniyatini egallab borish, ijro harakatlarini to‘g‘ri shakllantirish, jamoaviy ijro qoidalariiga to‘liq rioya etish hamda cholg‘ularni sozlash va ularni saqlash kabi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:¹

- ijro paytida gavdani shunday tutish lozimki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun qulay va tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lsin;
- suyanchiqqa suyanmasdan, o‘rindiqning yarmida o‘tirish odat qilinadi,
- sozandalarning chap oyoqlari oldinroq o‘ng oyoqlari esa orqaroq joylashadi;
- o‘ng qo‘lning to‘g‘ri joylanishiga, ijro harakatlarining erkin bo‘lishiga erishiladi;
- chap qo‘l soz dastasini siqmasligi (rubob, afg‘on rubobi, soz, g‘ijjak, dutor sozlarida), qo‘l kafti dastaga tågmasligi, erkin bo‘lishiga harakat qilinadi;
- sozandalar kuyni boshlashda diqqat bilan o‘tirishlari, boshlovchi sozanda yoki doiranining auftakti bilan birgalikda boshlashlari zarur;

¹ A.Mamataliyev. Ansamblsinfi.T.: "Musiqa" nashriyoti. 2020. - B.7

- kuyni tamomlashda ham xuddi shunday doira usuliga muvofiq yoki umumiy ansamblning bir nafasda tamomlashiga diqqatni qaratish lozim;

; - ansambl ijrochiligidagi jamoaviy ijro madaniyatiga riosa qilish, ijro paytida diqqat bilan o'tirish nafaqat o'z sozi tovushi, balki umumiy ansambl tovushini va shunga mos ravishda o'z sozi tovushini nazorat qilib borishi lozim;

- ijro uchun qulay va to'g'ri holatni tanlash, qo'llarni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini to'g'ri o'zlashtirib borish har bir soz ijrosi uchun umumiy talablar mazmuniga kiradi.

Milliy musiqa san'ati sohasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy yo'naliishlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:²

Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy musiqa merosimizni asrab-avaylash, yangi sharoitlarda rivojlantirish va ulardan xalqimizni bahramand qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kompozitor, bastakor va sozandalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, havaskorlar orasidan iste'dodli ijrochilarni aniqlash maqsadida turli darajadagi ko'rik tanlovlarni o'tkazish, an'anaviy musiqa janrlarini yangi shart-sharoitlarda rivojlantirish maqsadida "ustoz-shogird" an'anasini yanada rivojlantirish;

Milliy va jahon kompozitorlari ijodiyotini insoniyat intellektual xazinasi sifatida xalq orasida keng targ'ib qilish, zamonaviy ruhda yuksak badiiy asarlar yaratish, katta musiqiy asarlar, jumladan opera, simfoniya, konsert va oratoriya kabi mumtoz janrlarni rivojlantirish;

Yosh kompozitorlar, bastakorlar, musiqashunoslar va ijrochilarning ijod bilan samarali shug'ullanishlari uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni kengaytirish;

Ansamblning turli tarkiblari mavjud. Jumladan:

Vokal yoki cholq'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi;

² <https://lex.uz/docs/4084926>

Bir guruh artistlarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishi va h.k.

Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qo'llaniladi. Qolaversa, soddaqilibaytganda ansambl bir katta oiladir. Shundayekan, uning tarkibiga kiruvchi har bir sozanda ijrochi alohida dunyo. Ijrochini kamolot sari intilishi uchun musiqiy asarlarni mohiyatini g'oyaviy va badiiy idrok etishi, o'z mahorati bilan cheklanib qolmay jamoadagi boshqa ijrochilarini ham qalban his etishi, o'rni kelganda jo'rnavozlik vazifasini bajarib borishi tarkibning eng asosiy vazifalaridandir. O'z ornida tajribalardan kelib chiqqan holda, ansambl sinfini olib borayotgan ustozlar har bir cholg'uchining asarni to'la-to'kis ijrosiga alohida e'tibor berishi zarur. Chunki, talabalar orasida asarni to'liq yodolmaganlari ham uchrab turadi.

O'zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg'ularining 30tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdag'i musiqiy cholg'ular Xxasrning 40-yillaridan keyinproq professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg'ular bo'lib, konsert sahnalarida yakka navozlik sifatida, shu bilan birga, asosan orkestr va ko'p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqiy cholg'ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi. Hozirda o'zbek xalq cholg'ulari ansambllarida nay, chang, doyra, qashqar rubob, dutor, g'ijjak cholg'ularidan keng foydalanilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Axmedov "Ansambl (turlaribo'yicha)" Toshkent: 2023.
- 2.O'.Mirzayev - "Cholg'u ijrochiligi va ansambl". N., "Tahrir" 2019
- 3.R.Qodirov - "Musiqapedagogikasi". T.: 2013
- 4.O.Toshmatova. Xalq cholg'ulari antologiyasi. T., "Musiq'a" 2014
- 5.A.Fitrat - "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" T., "Fan" 1993

6. A.Mamadaliyev - "Ansambl sinfi". T., "Musiqa" 2020

7.<https://lex.uz/docs/4084926>

8.A.Mamadaliyev. Ansamblsinf.T.: "Musiqa" nashriyoti. 2020. - B.7